



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi	
Talabalarning xulqidagi deviatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
Jonbo'tayeva Maxarramxon	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna	

TALABALARNING XULQIDAGI DEVIATSIYA DARAJASINING YUQORILAB KETISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK OMILLAR

Ergashev Jo'rabek Xalilovich

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası stajor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning xulqidagi deviatziya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Deviant xulq shaxsning jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar va tartib-qoidalardan og'uvchi xatti-harakatlari sifatida talqin qilinadi. Talabalik davri mustaqil hayotga o'tish, kasbiy o'zlikni anglash, shaxslararo munosabatlarni qayta qurish, akademik mas'uliyatni oshirish va ijtimoiy mavqeni mustahkamlash bilan bog'liq murakkab bosqichdir. Shu sababli oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, oliy ta'lim muassasasidagi psixologik iqlim, ijtimoiy nazorat, raqamli muhit, stress, qadriyatlar inqirozi va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarining yetarli rivojlanmaganligi talabalarda deviant xulq shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kalit so'zlar: deviant xulq, talaba, ijtimoiy-psixologik omil, tengdoshlar guruhi, oilaviy muhit, ijtimoiy nazorat, stress.

Abstract: This article analyzes the socio-psychological factors influencing the increase in the level of deviant behavior among university students. Deviant behavior is interpreted as actions that deviate from the norms, values, and rules accepted in society. The period of university study is a complex stage associated with the transition to independent living, the development of professional identity, the restructuring of interpersonal relationships, increased academic responsibility, and the strengthening of social status. Therefore, factors such as the family environment, peer groups, the psychological climate within higher education institutions, social control, the digital environment, stress, the crisis of values, and insufficiently developed self-regulation skills may contribute to the formation of deviant behavior among students.

Key words: deviant behavior, university student, socio-psychological factor, peer group, family environment, social control, stress.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на повышение уровня девиантного поведения студентов. Девиантное поведение рассматривается как действия личности, отклоняющиеся от принятых в обществе норм, ценностей и правил. Студенческий период представляет собой сложный этап, связанный с переходом к самостоятельной жизни, формированием профессиональной идентичности, перестройкой межличностных отношений, повышением академической ответственности и укреплением социального статуса. В связи с этим семейная среда, группа сверстников, психологический климат в высшем учебном заведении, социальный контроль, цифровая среда, стресс, кризис ценностей и недостаточно развитые навыки саморегуляции могут способствовать формированию девиантного поведения у студентов.

Ключевые слова: девиантное поведение, студент, социально-психологический фактор, группа сверстников, семейная среда, социальный контроль, стресс.

KIRISH

Talabalarning xulqidagi deviatziya masalasi bugungi oliy ta'lim tizimida nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki talabalik davri shaxsning ijtimoiy yetuklikka o'tishi, kasbiy identifikatsiyasi shakllanishi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanishi va jamiyatdagi o'z o'rnini anglash jarayoni bilan bog'liq. Bu bosqichda shaxs turli ijtimoiy guruhlar, qadriyatlar, axborot oqimlari va xulqiy namunalar ta'siriga kiradi. Agar talaba ichki nazorat, ijtimoiy mas'uliyat, emotsional barqarorlik va konstruktiv muloqot ko'nikmalariga yetarlicha ega bo'lmasa, u me'yorlardan og'uvchi xatti-harakatlarga moyil bo'lishi mumkin.

Deviant xulq tushunchasi keng mazmunga ega bo'lib, u akademik intizomsizlik, dars qoldirish, tajovuzkorlik, yolg'onchilik, akademik halollikni buzish, zararli odatlarga berilish, virtual muhitda destruktiv faollik, huquqbuzarlik yoki o'z-o'ziga zarar yetkazuvchi xulq shakllarini qamrab olishi mumkin. Bunday xatti-harakatlarning yuzaga kelishi faqat individual xarakter xususiyatlari bilan izohlanmaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deviant xulqni tushuntirishda klassik sotsiologik va psixologik yondashuvlar muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. R. Mertonning anomiya nazariyasida deviant xulq jamiyat tomonidan belgilangan maqsadlar bilan ularga erishishning qonuniy vositalari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi sifatida izohlanadi ^[1]. Bu yondashuv talabalik muhitiga tatbiq etilganda, yuqori akademik muvaffaqiyat, ijtimoiy obro' yoki moddiy farovonlikka intilish mavjud bo'lgani holda, ularga erishish uchun zarur psixologik, iqtisodiy yoki ta'limiy resurslar yetishmasa, talaba me'yoriy yo'ldan chekinishga moyil bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

T. Hirschning ijtimoiy nazorat nazariyasi deviant xulqni shaxsning jamiyat, oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy me'yorlar bilan bog'liqligi zaiflashuvi orqali tushuntiradi ^[2]. Ushbu nazariyaga ko'ra, talabaning oila, guruh, o'qituvchi va ta'lim muassasasi bilan ijobiy aloqalari mustahkam bo'lsa, u deviant xatti-harakatlardan tiyilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Aksincha, ijtimoiy bog'lanishlar sust, akademik maqsadlar noaniq, jamoaga daxldorlik hissi past bo'lsa, nazorat mexanizmlari zaiflashadi. Bu esa talabaning xulqida mas'uliyatsizlik, intizomsizlik yoki destruktiv guruh ta'siriga berilish ehtimolini oshiradi.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi deviant xulq shakllanishida kuzatish, taqlid va mustahkamlash mexanizmlarining ahamiyatini asoslaydi ^[3]. Talaba atrofidagi muhitda tajovuzkorlik, akademik insofsizlik, zararli odatlar yoki me'yorbuzarlik ijobiy natija berayotgandek ko'rinsa, u bunday xatti-harakatni o'zlashtirishi mumkin. Bu nazariya ayniqsa tengdoshlar guruhi va raqamli muhit ta'sirini tushuntirishda muhimdir. Chunki ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, onlayn guruhlar va norasmiy talabalar jamoalari ayrim hollarda xulqiy namunalar manbai sifatida faol ishlaydi.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar yondashuvi shaxs rivojlanishini mikro, mezo, ekzo va makro muhitlar o'zaro ta'siri orqali talqin qiladi ^[4]. Talaba xulqini o'rganishda bu yondashuv oila, akademik guruh, oliy ta'lim muassasasi, mahalla, axborot muhiti, iqtisodiy sharoit va jamiytdagi qadriyatlar tizimini birgalikda tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Deviant xulq ko'pincha bitta sabab natijasida emas, balki turli muhitlar orasidagi muvofiqlik buzilganda kuchayadi. Masalan, oilada nazorat haddan tashqari kuchli yoki, aksincha, sust bo'lsa, ta'lim muassasasida psixologik qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lmasa, tengdoshlar guruhi salbiy qadriyatlarni targ'ib qilsa, talabaning xulqiy barqarorligi zaiflashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarining deviant xulqiga ta'sir etuvchi *birinchi muhim omil oilaviy muhitdir*. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv maktabi bo'lib, unda nazorat, mehr, talabchanlik, mas'uliyat va qadriyatlar tizimi shakllanadi. Oilada befarqlik, zo'ravonlik, haddan tashqari nazorat, doimiy tanqid, iqtisodiy muammolar yoki ota-onalar bilan emotsional masofaning ortishi talabaning ichki barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi talabalar oliy ta'limga kimgach, oilaviy nazoratdan nisbatan ozod bo'ladi, biroq mustaqil hayotga tayyorgarligi yetarli bo'lmasa, xulqiy tanlovlarda beqarorlik yuzaga keladi.

Ikkinchi omil tengdoshlar guruhi ta'siridir. Talabalik davrida tengdoshlar fikri, guruhga qabul qilinish ehtiyoji va norasmiy mavqe juda kuchli bo'ladi. Agar guruhda dars qoldirish, spirtli ichimlik yoki boshqa zararli odatlarga moyillik, akademik halollikni buzish, agressiv hazil, kiberbulling yoki o'qishga befarqlik odatiy hol sifatida qabul qilinsa, individual talaba ham ushbu xatti-harakatlarga moslashishi mumkin. Guruh bosimi shaxsiy qarorni zaiflashtiradi, ayniqsa talabaning o'zini o'zi baholashi past, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji yuqori yoki rad etilishdan qo'rqishi kuchli bo'lsa.

Uchinchi omil oliy ta'lim muassasasidagi psixologik iqlimdir. Agar ta'lim muhitida adolatli baholash, ochiq muloqot, o'qituvchi-talaba hamkorligi, psixologik xizmat, talabalar tashabbusini qo'llab-quvvatlash va akademik halollik madaniyati shakllangan bo'lsa, deviant xulq xavfi kamayadi. Aksincha, ta'lim jarayonida formalizm, befarqlik, haddan tashqari bosim, kamsitish, korrupsion munosabatlar yoki talaba muammolariga e'tiborsizlik kuzatilsa, talabalarda norozilik, begonalashuv va me'yorlarga nisbatan bepisandlik paydo bo'lishi mumkin.

To'rtinchi muhim omil stress va emotsional zo'riqishdir. Talabalar akademik yuklama, imtihonlar, moddiy qiyinchilik, turar joy muammosi, oiladan uzoqlashish, shaxsiy munosabatlar, kasbiy kelajakdan xavotir va ijtimoiy taqqoslash bosimini boshdan kechiradi. Agar talaba stressni konstruktiv boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lmasa, u qochish, tajovuz, befarqlik, zararli odatlar yoki virtual muhitga haddan tashqari berilish orqali kompensatsiya qilishga urinishi mumkin. Bu holatda deviant xulq ko'pincha ichki psixologik zo'riqishning tashqi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Beshinchi omil raqamli muhit va axborot ta'siridir. Ijtimoiy tarmoqlar talabalarga tezkor muloqot, bilim olish va o'zini ifodalash imkonini beradi, biroq ular salbiy xulqiy namunalari, manipulyativ kontent, virtual tajovuz, qimor, yolg'on muvaffaqiyat obrazlari va doimiy taqqoslash bosimini ham kuchaytiradi. Raqamli muhitda ijtimoiy nazorat boshqacha ishlaydi: ayrim xatti-harakatlar anonimlik yoki masofaviylik sababli real hayotdagidan kamroq javobgarlik hissi bilan amalga oshiriladi. Natijada kiberbulling, akademik plagiat, vaqtni samarasiz sarflash va destruktiv guruhlariga qo'shilish xavfi ortadi.

Oltinchi omil qadriyatlar tizimidagi beqarorlikdir. Talaba o'z hayotiy maqsadi, kasbiy yo'nalishi va shaxsiy mas'uliyatini aniq anglamasa, tashqi ta'sirlarga beriluvchan bo'ladi. Bunday sharoitda tez natija, moddiy manfaat, obro' orttirish, guruhda ajralib turish yoki cheklovlardan qochish kabi motivlar ustunlashishi mumkin. Deviant xulqning kuchayishi ko'pincha axloqiy tanlov mexanizmlarining yetarli shakllanmaganligi bilan bog'liq. Shuning uchun profilaktika ishlari faqat taqiqlash va jazolashga emas, balki qadriyatli yo'naltirish, ijtimoiy mas'uliyat va hayotiy maqsadlarni shakllantirishga qaratilishi zarur.

Talabalardagi deviant xulqni kamaytirishda ijtimoiy-psixologik profilaktika alohida ahamiyatga ega. Bunda birinchi yo'nalish - talabalarning moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlashdir. Birinchi kurs talabalariga akademik muhit, mustaqil ta'lim, vaqtni boshqarish, guruhda muloqot, stressni boshqarish va huquqiy-axloqiy me'yorlar bo'yicha maxsus treninglar tashkil etilishi lozim. Ikkinchi yo'nalish - psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirishdir. Psixologik maslahat, anonim murojaat tizimi, ijtimoiy xavf guruhlarini erta aniqlash va individual yordam mexanizmlari deviant xulqning chuqurlashishini oldini oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarning xulqidagi deviansiya darajasining yuqorilab ketishi ko'p omilli ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, uni faqat shaxsiy intizomsizlik yoki axloqiy zaiflik bilan izohlash yetarli emas. Oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, oliy ta'lim muassasasidagi psixologik iqlim, ijtimoiy nazorat darajasi, stress, raqamli muhit, qadriyatlar tizimi va shaxsning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati birgalikda deviant xulq shakllanishiga ta'sir etadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Merton deviant xulqni ijtimoiy maqsadlar va qonuniy vositalar nomutanosibli bilan, Hirschi ijtimoiy bog'liqlik va nazorat zaiflashuvi bilan, Bandura kuzatish va taqlid orqali o'rganish bilan, Bronfenbrenner esa shaxsni o'rab turgan ko'p darajali muhitlar ta'siri bilan tushuntiradi. Zmanovskaya va Mendeleevichning yondashuvlari esa deviant xulqni psixologik moslashuv, ichki konflikt va ijtimoiy muhit o'rtasidagi murakkab aloqalar orqali tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Merton R. K. Social Structure and Anomie // American Sociological Review. – 2018. - Vol. 3, No. 5. - P. 672–682.
2. Hirschi T. Causes of Delinquency. - Berkeley: University of California Press, 2019. - 309 p.
3. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, N.J.: Prentice Hall, 2017. - 247 p.
4. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 2019. - 330 p.
5. Змановская Е. В. Девиантология: психология отклоняющегося поведения: учебное пособие. - 2-е изд., испр. - Москва: Издательский центр "Академия", 2014. - 288 с.
6. Менделевич В. Д. Психология девиантного поведения: учебное пособие. - Санкт-Петербург: Речь, 2015. - 445 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.